

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasidan Z.Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan "Yaxshilig' qilg'ilki, olamda mundin yaxshi yo'q" mavzusida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir

B A Y O N N O M A S I

Buxoro shahri

2025-yil 14-fevral

Qatnashdilar: Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida professor-o'qituvchilari, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha 1-prorektor D.Yavmutov, A.Amonov, N.Shukrullayev, tyutorlar, fakultet talabalari, universitet professor-o'qituvchilari.

Kun tartibi:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligiga bag'ishlangan "Yaxshilig' qilg'ilki, olamda mundin yaxshi yo'q" mavzusida o'tkazilgan adabiy-badiiy, musiqiy kecha muhokamasi.

Eshitildi:

2025-yil 14-fevral kuni Buxoro davlat universitetida o'zbek va jahon tarixidagi buyuk shaxslardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligiga bag'ishlangan "Yaxshilig' qilg'ilki, olamda mundin yaxshi yo'q" deb nomlangan adabiy-badiiy, musiqiy kecha bo'lib o'tdi. Tadbirni O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida professor, f.f.d. N.Bekova, f.f.f.d(PhD) D.Sodiqova, f.f.f.d(PhD) Z.Sayliyeva, f.f.f.d(PhD) L.To'rayeva va kafedra o'qituvchisi A.Hamidovlar tashkil qilishdi.

Filologiya fakultetining otaxon ustoz, f.f.d, professor N.Shukrullayevning "Bobur hayoti va ijodi", professor N.Bekovanning "Shoh va davlat arbobi Z.Bobur" mavzularidagi ma'ruzalari tinglandi.

Fakultet talabalari tomonidan Z.M.Bobur ruboiy va g'azallari yoddan aytili, "Boburnoma" va "Yulduzli tunlar" asarlari asosidagi sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Tadbir so'ngida Bobur tavalludiga bag'ishlangan tanlovlar g'oliblari taqdirlandi.

Fakultet dekani Q.To'xsanov so'zga chiqib, bugungi tadbirda faol ishtirok etgan talabalarni faxriy yorliq bilan taqdirladi. O'tkazilgan tadbir barchada katta taassurot qoldirdi.

Kun tartibidagi masala bo'yicha yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligiga bag'ishlangan "Yaxshilig' qilg'ilki, olamda mundin yaxshi yo'q" mavzusida o'tkazilgan adabiy-badiiy, musiqiy tadbir ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kafedra professor-o'qituvchilarining mavzu doirasidagi nutqi ijobiy deb topilsin.

Yig'ilish raisi:

D.Rajabov

Bayonlashtirdi:

D.Sodiqova







Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida tomonidan Z.Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan "Talaba- yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda ular o'rtasida poraxo'rlik va ta'magirlik holatlarini oldini olish" mavzusida o'tkazilgan davra suhbatini

BAYONNOMASI

Buxoro shahri

2025-yil 6-fevral

Qatnashdilar: Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida professor-o'qituvchilari.

Kun tartibi:

1. "Talaba- yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda ular o'rtasida poraxo'rlik va ta'magirlik holatlarini oldini olish" mavzusida o'tkazilgan davra suhbatini muhokamasi.

Eshitildi:

2025-yil 6-fevral kuni Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida "Talaba- yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda ular o'rtasida poraxo'rlik va ta'magirlik holatlarini oldini olish" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

Filologiya fanlari doktori, prof. H.Eshonqulov ma'ruzasi tinglandi:

Respublikamizda ushbu jinoyatga qarshi kurash sohasida maqsadli siyosat olib borilmoqda. Jumladan, ushbu sohada qonunchilik asoslarini takomillashtirish, davlat organlarining, jamiyatning ochiqqligini ta'minlash, axborotlardan foydalanishimkoniyatlarini kengaytirish borasida ahamiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashish va bu sohada samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish masalalari davlatimiz rahbariyatining diqqat

markazidadir. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy o'nalishlari va prinsiplarini belgilashda bunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash masalasi qat'iy hisobga olingan. Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo'l urgan odam uchun ulug' narsalar, mo'tabar tuyg'ularning qadri yo'qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o'ylaydi. Ular iymon-e'tiqodga ishonmaydi, ayni paytda bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech narsani inonib bo'lmaydi. Chunki ular ota-onasi, qarindosh-urug'lari, yor-u birodarlari, mahalla ko'yning yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi.

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori L.To'rayeva: Qonunga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, bu jarayonda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi. Hammamiz yaxshi bilamiz, qonunhuquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Vakolatlar, huquq va majburiyatlarni, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab beradi.

Kun tartibidagi masala bo'yicha yig'ilish

QAROR QILADI:

1. "Talaba-yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda ular o'rtasida poraxo'rlik va ta'magirlik holatlarini oldini olish" mavzusida o'tkazilgan davra suhbatini ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kafedra professor-o'qituvchilarining mavzu doirasidagi nutqi ijobiy deb topilsin.

**Yig'ilish raisi:
Bayonlashtirdi:**

**D.Rajabov
D.Sodiqova**